

**O‘ZBEKISTONDA MONUMENTAL RANGTASVIR SAN’ATI  
TEXNIKA VA TEXNOLOGIYASI**

**ТЕХНИКА И ТЕХНОЛОГИЯ МОНУМЕНТАЛЬНОЙ  
ЖИВОПИСИ УЗБЕКИСТАНА**

**TECHNIQUE AND TECHNOLOGY OF MONUMENTAL  
PAINTING IN UZBEKISTAN.**

***Kazakov Ortikboy Turginovich***

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va  
dizayn instituti Amaliy san’at va dizayn fakulteti  
Chizmatasvir kafedrası professori*

**Annotatsiya:** O‘zbekistonda monumental bezak san’ati asarlari tasviriy san’atning eng ommabop va xalqona turlaridan biridir.

Ushbu maqolada O‘zbekiston monumental rangtasvir san’ati texnika va texnologiyasi haqida bo‘lib, unda freska va mozaikani ishlashda kerak bo‘ladigan ashyolar, ishlanish ketma-ketligi to‘g‘risida batafsil ma’lumot berilgan.

Bundan tashqari bugungi kunda san’atga qaratilayotgan e’tibor xususida ham yozilgan.

**Аннотация:** Произведения монументально-декоративного искусства являются одним из самых массовых и популярных видов изобразительного искусства в Узбекистане.

Эта статья о технике и технологии монументальной живописи Узбекистана, в ней дана подробная информация о материалах, необходимых для изготовления фресок и мозаик, а также о последовательности работ.

Также написано о том внимании, которое сегодня уделяется искусству.

**Annotation:** Works of monumental and decorative art are one of the most massive and popular types of fine art in Uzbekistan.

This article is about the technique and technology of monumental painting in Uzbekistan, it provides detailed information about the materials needed for the manufacture of frescoes and mosaics, as well as the sequence of work.

It is also written about the attention paid to art today.

**Kalit so‘zlar:** Arxitektura, mahobatli, me’morlar, hunarmandlar, rassomlar, freska, mozaika, panno, monumental-dekorativ

**Ключевые слова:** Архитектура, величественная, зодчие, мастера, художники, фреска, мозаика, панно, монументально-декоративное

**Keywords:** Architecture, monumental, architects, craftsmen, painters, frescoes, mosaics, panels, monumental-decorative

O‘zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan san’at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritish ekanmiz, O‘zbek san’atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davridan boshlanganligiga guvoh bo‘lamiz. O‘zbek xalqining san’ati asrlar davomida shakllangan qadimiy tarixga ega.

Darhaqiqat insoniyat tafakkuri rivojlanishi san’atsiz kechmaydi. Mamlaktimizda ham bu soha turli sabablar bilan yuksalish davrini boshidan o‘tkazib keldi. Lekin so‘nggi yillarda mazkur sohalarni rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarish yuzasidan hukumatimiz tomonidan tub o‘zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda. Eng quvonarlisi, butun yer kurrasiga kelgan balo — pandemiya sharoitida ham yurtimizda san’atga bo‘lgan e’tibor chetda qolmadi.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev shunday ta’kidlagan edi: “Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi”.

Xususan, 60-70-yillarda yurtimiz bir guruh yosh monumentalchi rassomlar keksa naqqoshlar bilan hamkorlik qilgan. Bularning ichida B. Jalolov, A. va V. Gan, Yu. Chemishev, S. Rohmonov, E. Nazarov, F. Sulaymonov, R. Xudayberganov, A. Aliqulovlar bor. Ular o‘z ijodlarida tabiat go‘zalliklarini, dolzarb mehnatni tarannum etdilar[1,38].

O‘zlarining ona-Vatanga muhabbatlarini namoyon qilib, inson tuyg‘usini kamol toptirishga samarali ta’sir ko‘rsatdilar. Yosh ijodkorlar bunyod etgan asarlardan Toshkentdagi O‘quvchilar Saroyi, Urganchdagi teatr, Chimyondagi dam olish uyi, O‘zbekiston Davlat tarix muzeyi, Konservatoriya, Senat saroyi, «Turkiston» saroyi va boshqalardagi mahobatli rangtasvir bezaklar o‘zlarining originalligi bilan diqqatni jalb etadi. Behisob va rang - barang devoriy asarlarni ko‘zdan kechirish ekanmiz, rassomlar hayol dunyosining naqadar kengligiga tasanno aytmay turolmaydi, kishi.

Chinakam san’at ustasi bo‘lgan odamgina mana shunday asarlar yaratishi va shunday asarlarga yangi - yangi san’at ustalarini tarbiyalashi mumkin. O‘zbek xalqi ikki ming yil davomida monumental - dekorativ va amaliy san’atning shunday ajoyib namunalarini yaratdi va yaratmoqdaki, ular O‘zlarining yuksak badiiy mahorat va nazokat ila ijro etilishlari bilan bugungi kunda ham kishilarni hayratga solmoqda.

Ko‘p yillik tajribalar, olmos iste’dod va xalq tafakkuri bilan yo‘g‘rilgan har bir chinakam san’at asari ranglar sehr - jodusi bilan qalbimizga ilhom bag‘ishlab, ma’naviy dunyomizni yanada boyitadi

O‘zbekistonda mahobatli bezak san’ati asarlari tasviriy san’atning eng ommabop va xalqona turlaridan biridir. Sababi, bu turdagi haykal, bezak va rasmlar doimo odamlarning nazarida bo‘ladi. Ranglar ham birmuncha shartli olinadi, shunga qaramasdan u borliq to‘g‘risida real tasavvur berishi kerak[2,47].

Mahobatli rangtasvir me'morchilikda ma'lum miqdorda bezash vazifasini ham o'taydi, shuning uchun ham uni ba'zan monumental - dekorativ rangtasvir deb ham yuritiladi. Mahobatli asarlari bajarilish usuliga qarab o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi. Ana shu turlardan freska, mozaikaning ishlanish texnika va texnologiyasi bilan to'liq tanishamiz.

Mahobatli rangtasvir san'atining freska turida eskiz asosida karton tayyorlanadi. Kompozitsiya eskizi devorning haqiqiy o'lchamiga binoan oq-qora yoki rangli kartonda bajariladi.

Devorning haqiqiy o'lchamiga binoan bajarilgan tasvirdan kalka olinadi va tayyor bo'lgan kartondan kalka qog'ozida nusxa olinadi. Belgilangan devor grunt qilinib, tasvir bajariladigan devor tekis suvoq qilinadi. Kalka yoki karton yordamida chizmatasvir devorga ko'chiriladi va kompozitsiya eskizga asosan bo'yoq bilan tasvir amalga oshiriladi[6,32].

Mahobatli rangtasvir san'ati mozaikasini ishlash bosqichida ham yuqoridagi kabi eskiz asosida karton tayyorlanib, kompozitsiya eskizi devorning haqiqiy o'lchamiga binoan rangda karton bajariladi.

Karton devorning haqiqiy o'lchamiga ko'ra bajarilgan tasvirdan kalka olinadi. Nusxa olingandan so'ng maydalangan smalta toshlari rangli kartondan tasvirga qarab yuziga rang va modul asosida quruq terib chiqiladi.

Mozaika bloklarini devorga ishlash uchun uning asosini po'lat armaturalar yordamida karkas panjara devor yuzida hosil qilinadi. Bu jarayonda elektr payvandagichdan foydalaniladi. To'la yig'ilgan mozaika bloklari chang va loylardan tozalab spirt bilan yuviladi. Shu tarzda kompozitsiya to'laligicha binoda hosil bo'ladi[6,32].

Ijodiy ishlanish rassomdan puxta bilim, ko'nikmani talab etadi. Chunki ba'zi rassomlar texnologiyaga berilib qolinsa asaming badiiyligiga putur yetkazishi mumkin deb qaraydilar. Faqat texnologiyaga katta e'tibor berilsa hunarmandga aylanib qolishi mumkin. Ammo texnologiyani yetarli bilmaslik ham asarga muddatidan oldin nobud bo'lishiga olib keladi.

Ashyolami va texnologiyani to'g'ri ishlata bilish asar yaratishda o'ziga bo'lgan ishonchni, o'z g'oyasini to'g'ri amalga oshirishni ta'minlaydi. Rassom oldida badiiy bezakni ishlash har xil bo'lib, u yetarli darajada texnika va texnologiyani qo'llash usullarini bilishni taqozo qiladi. Ammo u usul ham bir necha xil imkoniyatlarga va turlarga ega bo'lib, turli usullarda amalga oshirilishi mumkin.

Rassomni o'z oldiga qo'ygan badiiy vazifa va uning tasvirlanishiga bog'liq. Arxitekturada mahobatli rangtasvir asari uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, uning iqlimi, texnologiyasini rassom puxta o'ylab bajarishi lozim.

Mahobatli rangtasvir asarini uzoq saqlanishiga rassom ham, arxitektor ham birday javobgardir. Shuning uchun ashyoda har doim sinovlar o'tkazishda ilmiy tekshirish

institutlari jalb qilinadi. Chunki har doim yangi - yangi ashyolar dunyoga kelmoqda. Ashyoning fizik, kimyoviy xossalarini olimlar yetarli darajada aniqlagan bo'lsalar, rassomlar esa uning estetik tomonini badiiy asar yaratishda sinab ko'radi va aniqlaydi.

Har bir ashyo ishlov berilishiga qarab uning yuzasining tekisligi, rangi, og'irligi, qattiqligi, yopishqoqligi, egiluvchanligi va boshqa xususiyatlariga ega.

Ayniqsa, mahobatli rangtasvir asar yaratishda rassom uchun ashyoning tarkibi, rangi, yuzasining fakturasi muhim hisoblanadi. Ashyolar O'z tabiiy xususiyatiga ega bo'lib, uning imkoniyatini to'g'ri ishlata bilish lozim. Ammo bu jarayondan bachkanalikka olib keladigan holatda foydalanmaslik kerak. Tabiiylik darajasi ham badiiy imkoniyat yaratishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullaev.N. «O'zbekiston milliy portret san'ati». G'.G'ulom nomidagi nashr. T.2011-y.
2. Khujaniyozov R.Q. Fine lines Uzbekistan painting art. – Art and design Social Science, 2022. – B. 8-11.
3. Khujaniyozov R.Q. The Integral Role of Artists is the Development of Fine Arts. ARTS AND DESIGN, 2024 ISSN: 2660-6844, – B. 18-21.
4. Erkabayeva F.A Yangi O'zbekiston mahobatli rangtasvir san'atining bugungi kundagi taraqqiyot yo'li, – RESEARCH AND EDUCATION, 2023. ISSN: 2181-3191. – B. 96-100
5. Allabergenov S.A. The Significance of Colors as an Emotional Factor in the Art of Painting. – USE: AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies, 2023. – ISSN (E): 2993-2157 – P. 148-150
6. Mahmudov B.T. Perception of Miniature Works through an Artistic Image. – USE: IJNRAS, 2023. – ISSN: 2751-756X. – P. 179-182
7. Makhmudov B.T. The artist's psychological perception of colors, Innovation and Integrity, 2023. – ISSN: 2792-8268.
8. Umirzakov R.R. Imagination allows a person to realize many projects. – European Journal of Innovation in Nonformal Education, 2023. – ISSN - 2795-8612. – P. 158-161
9. Xo'janiyozov R.Q. O'zbekiston tasviriy san'atida o'rol tansiqboyev ijodi va faoliyati. – RESEARCH AND EDUCATION, 2023. – ISSN: 2181-3191 – B. 78-79.
10. Vokhidova G.I. Cubism in Fine Arts – Innovation and Integrity, 2023. – ISSN: 2792-8268 – P. 39-40
11. Королькова Е.Ф. Инновационный подход в художественном образовании, современные направления декоративно-прикладного искусства, – RESEARCH AND EDUCATION, 2023. ISSN: 2181-3191. – P.107-111.

12. Khujaniyozov R.Q. Fine lines Uzbekistan painting art. – Art and design Social Science, 2022. – B. 8-11.
13. Khjaniyozov R.Q. The Integral Role of Artists is the Development of Fine Arts. ARTS AND DESIGN, 2024 ISSN: 2660-6844, – B. 18-21.
14. Erkabayeva F.A Yangi O‘zbekiston mahobatli rangtasvir san’atining bugungi kundagi taraqqiyot yo‘li, – RESEARCH AND EDUCATION, 2023. ISSN: 2181-3191. –
15. Hasanov. R., “Tasviriy san’at asoslari”, Toshkent, 2009 yil.
16. Nabiev M., Rangshunoslik. – Toshkent. “O‘qituvchi”, 1996 y.
17. “O‘zbekiston san’ati”. T.: 2001.
18. Abdirasilov. S., Tolipov. N., - Dastgohli rangtasvir. “Iqtisod moliya”. T.: 2010.
19. O.Mo‘yinov “Rangtasvir” Toshkent “Sharq” matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.
20. G‘.A.Artaqov. “Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi” Toshkent “Sharq” matbaa-aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati 2007 yil.
21. Amaliy bezak san’ati. Tasviriy san’at. O‘zME. Toshkent: 12 tom. 2006; 542-563 betlar;
22. Пугаченкова Г. Из художественной сокровищницы. Среднего Востока Тошкент: 1987;
23. Qoraboev, U. Madaniyat masalalari. Toshkent: 2009; 251 bet
24. Степанов, Г.П. “Композиционные проблемы синтеза искусств”.- Л. “Художник”. 1984
25. Декоративная монументальная живопись, Шанхай. 1999.

**Internet saytlari:**

26. <http://www.ziynet.uz>
27. <http://www.google.uz>
28. <http://www.yandex>
29. <http://www.Wikipedia>
30. <http://www.kultura.uz>